



JARQO'TON-ENG QADIMIY SHAHAR

Rabbimova Sevara Bobir qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston hududida joylashgan eng qadimi shahar yodgorligi sifatida talqin qilinuvchi Jarqo'ton yodgorligi va uning o'r ganilishi, me'moriy qurilish xususiyatlari haqida so'z boradi. Jarqo'ton shahar xarobalari Vatanimiz tarixida dastlabki urbanizatsiya jarayonlarini shakllanishi va taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Kalit so'zlar: Jarqo'ton yodgorligi, Sherobod tumani, eng qadimi shahar, A. Asqarov, T. Shirinov, Sh. Shaydullayev, D.Xuff. O'zbek-German qo'shma ekspeditsiyasi, otashkada, sopol idishlari.

O'zbekiston hududi o'z qadim tarixiga, davlatchilik, urbanistik jarayonlarning barcha bosqichlarini bosib o'tgan zalvorli qadimiyatiga ega maskanlardan hisoblanadi. Bu madaniy o'lkada qadim shahar madaniyati, qishloq makonlari, ilk manzilgohlar va o'ziga xos turli madaniyatlar vujudga kelgan, shakllangan va taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Bu madaniyatlardan o'z o'rniga ega shahar madaniyatini shakllanishi birinchi bosqichini biz Surxon vohasida joylashgan Jarqo'ton yodgorligi misolida talqin qilamiz.

Jarqo'ton – qadimi shahar xarobasi, mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmiga oid bo'lib, hozirgi Surxondaryo viloyati Sherobod tumani (Sherobod daryo irmog'i Bo'stonsoy o'zanining chap sohili)da joylashgan. Sopolli madaniyatiga mansub qabilalarning jez davri yodgorligi hisoblanadi. Tadqiqotchilarining aniqlashicha, Jarqo'ton aholisi sug'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan[5].



Bu shahar xarobasida 1973-yilda O‘zbekiston FA Arxeologiya institutining A. Asqarov rahbarligidagi ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan. Jarqo’ton yodgorligi umumiyligi maydoni 100 hektar bo’lib, mudofaa devori bilan o‘ralgan markaziy qo‘rg‘on, otashparastlar ibodatxonasi, maydoni 20 ga bo’lgan qabriston va bir necha dahalardan iborat bo’lgan. Jarqo’tonda turar joy qoldiqlari, ibodatxona, kulolchilik mahallasi, metall eritiladigan ustaxonalar, 1000 dan ortiq qabrular ochib o‘rganildi[1].

Turar joy binolari katta bichimli xom g‘ishtdan bir yoki bir necha xonali qilib qurilgan. Xonalar sahni va devori somonli loy bilan suvalgan. Ko‘chalar tor, daha ibodatxonasiga boruvchi yo‘lga shag‘al yotqizilgan. Erkaklar o‘ng yonboshi, ayollar chap yonboshi bilan g‘ujanak holda ko‘milgan. Jarqo’tondan toshdan yasalgan omoch tishi, ko‘plab sopol idish (xumcha, ko‘zacha, tog‘ora, kosa, piyola, tog‘oracha, lagan)lar jez igna, bigiz, xanjar, chaqmoqtoshdan ishlangan paykonlar, jez taqinchoqlar (rangli toshlar qadalgan ko‘plab to‘g‘nog‘ich, bilaguzuk, zirak, oyna) qimmatbaho toshlar va suyakdan yasalgan munchoqlar, jez surmadon, qabila muhr tamg‘alari, ip mato qoldig‘i va boshqa moddiy ashyo namunalari topilgan[3].

Jarqo’ton manzilgohida markazlashgan mahobatli ibodatxona o‘rganilgan. Ko‘pchilik tadqiqotchilar mazkur inshoot ilk zardushtiylik ibodatxonasi deb baholagan. Jarqo’ton ibodatxonasi 1983-1987 yillar mobaynida A.A.Asqarov va T.Sh.Shirinov rahbarligidagi O’zR FA Arxeologiya institutining Sherobod otryadi tomonidan o‘rganilgan. 1994-2003 yillar davomida esa, Sh. Shaydullaev va D.Xuff rahbarligidagi O‘zbekiston-Germaniya arxeologik ekspeditsiyasi[5] Jarqo’ton manzilgohida o‘z tadqiqotlarini olib borgan.

Jarqo’ton ibodatxonasi shaharning eng baland va markaz joyida qurilgan. Mudofaa devorlari 4.5 qalinlikda bo’lgan. Ichki qurilish usuli ilohiylikka xos bo’lgan va uch qismga bo’lingan. Ular quyidagilar:



Birinchisi xo'jalik qismi bo'lgan. U yerda ibodat va koxinlar xizmati bilan bog'liq ishlar uchun ishlab chiqarish ishlari amalga oshirilgan. Masalan, ibodat uchun zarur buyumlar va mayitlar bilan ko'miladigan ashyolar shu qismda ishlab chiqarilgan.

Ikkinci qismi ibodatxona markazi bo'lgan. U yer xom g'ishtdan terilgan keng maydon bo'lib, unda "chohartak" markaziy otashkada o'rnatilgan.

Uchinchi qismi ibodat amallari bajariladigan ilohiy joy bo'lgan[2]. Unda otashkadalar, quduqlar, omborxona, kulkonalar joylashtirilgan. Topilmalar orasida bronzadan ishlangan pichoq dastasi bo'lib, uning gulmixlari termirdan yasalgan. Bu topilma Sopolli madaniyati aholisi termirni bilganligidan dalolat beradi. Katta patriarchal yashagan ko'p xonali uy qoldiqlari topilgan.

Tadqiqot natijalarida juda ko'p arxeologik topilmalar aniqlangan bo'lsada, ushbu ibodatxona qaysi dinni targ'ib qilib borishi haqida faqat taxminlar mavjud. Jarqo'ton ibodatxonasida zardushtiylik diniga oid topilmalar kulxonalar, muqaddas quduqlar, otashkadalar topilgan. Ibodatxonadan tashqarida Jarqo'ton qabristoni mavjud. Bu yerda yettita qabr topilgan. Bu qabrlarda ko'milgan odamlar suyaklari, ostanadon ko'rinishli silindrokonik kichik idishlar ham topilgan. Bular zardushtiylik dini nishonalari bo'lib hisoblanadi[4]. Lekin shu yerning o'zida topilgan mayit yoqish joy qoldiqlari ham topilgan. Jarqo'ton yodgorligi o'zining tuzilishi bilan Dashtli, To'g'aloq, Gonur yodgorliklariga o'xshab ketadi.

Jarqo'ton yodgorligi ashyolariga o'xshash yodgorliklar Surxondaryo viloyatidan tashqari Janubiy Tojikiston, Turkmaniston va Shimoliy Afg'oniston, Eron hududlarida ham uchraydi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, Jarqo'ton yodgorligi Surxondaryo viloyatining Sherobod tumanida Bo'stonsoy sohillarida bundan uch yarim-to'rt ming yil avval qad ko'targan noyob obida bo'lib, unda 1973-yildan hozirgacha keng ko'lamlı arxeologik izlanishlar olib borilmoqda. Qadimgi Sharq



sivilizatsiyasi shaharlari turkumiga kirgan bu shahar xarobasidan shahar hukmdorining monumental shohona saroy qoldiqlari, yuksak darajada rivojlangan ko‘p tarmoqli hunarmandchilik ob’ektlari hamda zardushtiylik dini va Avesto vatani tarkibiga O‘zbekiston hududlari ham kirganligidan guvohlik ber uvchi mahobatli monumental bino – otashparastlar ibodatxonasi topilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Asqarov A. Eng qadimiy shahar. Toshkent. 2001. 6-13-b.
2. Jurayeva S.N., Usmonov I.S., Qurbonov A.M., Azimova L.K. Surxondaryo tarix sahnasida. Toshkent. 2022. 288-b.
3. Jurayeva S. Surxondaryo viloyati ziyyaratgohlari tarixi. Toshkent. 2021. 224-b.
4. O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent. 2000. 192-197-b.
5. www.wikipedia.org internet sayti